



BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

(Dastlabki ma'lumotlar)

Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra **1 983,3 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **6,5 ming kishiga** yoki **0,3 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **729,2 ming kishini** (jami aholi sonidagi ulushi **36,7 %**), qishloq aholisi soni **1 254,1 ming kishi** (**63,3 %**)ni tashkil etdi.



Doimiy aholi soni

1 983,3 ming kishi



Tug'ilganlar soni

9,4 ming kishi



O'lganlar soni

2,2 ming kishi



Nikohlar soni

3,7 ming birlik



Nikohdan ajralishlar soni

0,7 ming birlik



Ko'chib kelganlar soni

1,5 ming kishi




Ko'chib ketganlar soni

2,2 ming kishi


Doimiy aholi soni hisobini yuritishda, hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davrida tug'ilganlar va ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va ko'chib ketganlar soni ayirib tashlanadi.



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra)




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi





Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati (2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, hududlarning viloyat jami aholisi sonidagi ulushi bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich G'ijduvon tumanida **15,8** % ni, keyingi o'rirlarda Buxoro shahri **14,4** % ni, Shofirkon tumani **9,2** % ni va Jondor tumani **9,1** % ni tashkil etgan.




Hududlar kesimida aholi zichligi (2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 1 kv kmga to'g'ri keladigan aholi)



2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,1** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,6** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **12,3** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.




Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi (jami aholi soniga nisbatan, % da)






Tug'ilganlar soni (yanvar – dekabr)



2022 yil yanvar – mart oylarida



2022-yil yanvar-mart oylarida **9,4** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,2** promilleni tashkil etdi hamda 2021-yilga nisbatan **2,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021-yilda **16,9** promilleni tashkil etgan).



Vafot etganlar soni (yanvar – dekabr)

2022-yilning yanvar-mart oylarida **2,2** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etdi.




Asosiy o'lim sabablari bo'yicha (2022 yil yanvar–mart)

2022-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining **67,4** % i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,8** % i – o'simtalardan, **4,8** % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **2,8** % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **4,9** % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **0,7** % i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda **10,6** % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

yanvar – mart

Vafot etganlar soni,
ming kishi



Jamiga nisbatan ulushi,
% da






**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 1 yoshgacha vafot etganlar
(2022 yil yanvar–mart)**

2022-yilning yanvar–mart oylarida **0,1** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **10,3** promilleni tashkil etdi.



**Tuzilgan nikohlar soni
(2022 yil yanvar–mart, ming birlik)**




**Hududlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti
(2022 yil yanvar–mart, 1000 aholiga nisbatan)**




Eng yuqori nikoh koeffitsiyenti (promille) Buxoro shahri (9,1), Jondor (9,0), Peshku (8,1) tumanlarida kuzatildi.



Eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Vobkent (6,1), Kogon sh. (6,2), Qorovulbozor (6,6) tumanlarida kuzatildi.



Nikohdan ajrashganlar soni (2022 yil yanvar–mart, ming birlik)




Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2022 yil yanvar–mart, 1000 aholiga nisbatan)




Eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Buxoro (2,8), Kogon (1,8) shaharlarda, Kogon (1,8), Jondor (1,2) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Peshku, Buxoro (0,8), Olot, Shofirkon (1,0) tumahlarida kuzatildi.



Aholi migratsiyasi (2022 yil yanvar–mart, ming kishi)



Migratsiya saldosi G'ijduvon (-0,1 ming kishi), Buxoro shahrida (-0,1 ming kishi) va Qorako'l (-0,1 ming kishi) tumanlarida ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlar soniga nisbatan sezilarli darajada balandligi kuzatildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Buxoro (0,1 ming kishi) va Kogon (0,1 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.